



# NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2025-yil 1-mart holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*


*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

Soʻnggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion gʻoyalar va bunyodkorlik salohiyatini qoʻllab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni taʼminlash boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy boʻgʻini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qoʻllab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va ragʻbatlantirish boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2025- yil 1- mart holatiga viloyatda faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xoʻjaliklaridan tashqari 24 654 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 20 259 ta.

Shuningdek, ushbu davrga 42 871 ta korxonalar roʻyxatdan oʻtib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati 104,1 foizni tashkil etdi.

## Korxonalar va tashkilotlar soni toʻgʻrisida umumiy maʼlumotlar (2025 yil 1- mart holatiga)




**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar**  
( 2025- yil yanvar-fevral oylarida )

2025- yil yanvar-fevral oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 727 tani tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o‘sishi kuzatilmoqda.

Jumladan: Kosonsoy (48 taga), Mingbuloq (25 taga), Chortoq (7 taga), Namangan (6 taga) va Norin (3 taga) o‘sish mavjud.


**Yillar kesimida soni**  
( birlikda )



**Shahar va tumanlar kesimida**  
( birlikda )



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni**  
( birlikda )




(2025-yil 1-mart holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025-yil 1-mart holatiga 24 654 tani tashkil etdi, ulardan 20 448 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 33,5 foiz, sanoat – 16,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 6,2 foiz, qurilish – 5,3 foiz, shahar va tumanlar kesimda esa eng ko'pi Namangan shahrida – 31,6 foiz, tumanlardan Chust – 8,5 foiz, Pop 7,5 foiz, Chortoqda – 6,4 va Uychi – 5,9 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


**Yillar kesimida soni**  
(birlikda)



**Shahr va tumanlar kesimida soni**  
(birlikda)



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni**  
(birlikda)






(2025- yil yanvar-fevral oylarida)


Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2025- yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 704 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 701 ta;
- yirik korxonalar 3 tani tashkil etdi.


**Yillar kesimida soni**  
(birlikda)



**Shahar va tumanlar kesimida soni**  
(birlikda)




**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni**  
(birlikda)



(2025- yil 1- mart holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025- yil 1- mart holatiga 20 448 tani tashkil etdi, ulardan 20 259 tasi kichik korxonalar va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 40,4 foiz, sanoat – 19,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 7,4 foiz, qurilish – 6,3 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,0 foiz, tashish va saqlash – 4,5 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 3,1 foiz, axborot va aloqa 1,7 foiz, boshqa turlari – 11,1 foiz.




(2025- yil yanvar-fevral oylarida)


Mamlakat iqtisodiyoti "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2025- yil yanvar-fevral oylarida Kosonsoy tumanida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2024- yilning mos davriga nisbatan 43 tadan 89 taga (o'sish 46 taga), Mingbuloq tumanida – 36 tadan 63 taga (o'sish 27 taga), Chortoq tumanida – 50 tadan 59 taga (o'sish 9 taga) ko'paydi.


**Yillar kesimida soni**  
(birlikda)



**Shahar va tumanlar kesimida soni**  
(birlikda)




**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni**  
(birlikda)




(2025 yil 1- mart holatiga)

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Namangan shahrida (32,0 foiz), Chust (8,6 foiz), Pop (7,4 foiz), Chortoq (6,5 foiz) va To'raqo'rg'on (6,4 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50,0 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


**Yillar kesimida soni**  
(birlikda)



**Shahar va tumanlar kesimida soni**  
(birlikda)



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni**  
(birlikda)




**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar**  
(2025- yil 1- mart holatiga)


Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Tumanlar Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning eng ko‘p qismi Pop (19,9 foiz), Mingbuloq (11,5 foiz) va Uchqo‘g‘on (10,7 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

**Shahar va tumanlar kesimida soni**  
( birlikda)



**Yillar kesimida soni**  
( birlikda)





(2025-yil 1-mart holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 16,2 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 95,2 foizini ishlab chiqarish sanoati, 2,1 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,8 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,9 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

## Shahar va tumanlar kesimida soni (birlikda)

Namangan sh.	1 482
shundan Davlatobod	433
Yangi Namangan	495
Kosonsoy	301
Namangan	290
Uychi	285
Chust	279
To'raqo'rg'on	272
Yangiqo'rg'on	233
Norin	205
Pop	193
Uchqo'rg'on	179
Chortoq	167
Mingbuloq	106

## Yillar kesimida soni (birlikda)



3 799

Ishlab chiqarish sanoati



84

tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



71

Suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



38

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



(2025- yil 1- mart holatiga)


O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 53,4 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 28,2 foiz ulushni tashkil etdi.
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 18,4 foiz ulushni tashkil etdi;

**Shahar va tumanlar kesimida soni**  
(birlikda)



**Yillar kesimida soni**  
(birlikda)



(2025-yil 1-mart holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,5 foizi yoki 8 222 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 58,2 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 32,3 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 9,5 foiz ulushni tashkil etdi.

## Shahar va tumanlar kesimida soni (birlikda)

Namangan sh.	2 453
shundan Davlatobod	544
Yangi Namangan	636
Chortoq	759
Chust	644
Pop	615
To'raqo'rg'on	581
Mingbuloq	537
Norin	475
Yangiqo'rg'on	466
Uchgo'rg'on	447
Namangan	445
Uychi	441
Kosonsoy	402

## Yillar kesimida soni (birlikda)



4 813

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

2 672

780

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

(2025- yil 1- mart holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025- yil 1- mart holatiga 1 235 taga yetib, ularning 1 228 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:



- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2025- yil 1- mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 5,7 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 94,3 foiz ulushini tashkil etdi.

## Shahar va tumanlar kesimida soni (birlikda)

Namangan sh.	460
shundan Davlatobod	122
Yangi Namangan	92
Chust	127
Pop	112
To'raqo'rg'on	74
Norin	71
Uchqo'rg'on	69
Yangiqo'rg'on	64
Namangan	62
Kosonsoy	59
Chortoq	50
Uychi	44
Mingbuloq	43

## Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025-yil 1-mart holatiga)

2025-yil 1-mart holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxonalar va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 42,0 foizini;

Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 39,3 foizini;

Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 18,7 foizni tashkil etdi.


## Shahar va tumanlar kesimida soni

(birlikda)

Namangan sh.	154
shundan Davlatobod	27
Yangi Namangan	23
Chust	39
Namangan	27
Uchqo'rg'on	23
Uychi	21
Norin	19
Yangiqo'rg'on	19
Chortoq	18
Pop	15
To'raqo'rg'on	15
Kosonsoy	13
Mingbuloq	11

## Yillar kesimida soni

(birlikda)



Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar	86	154	Aloqa
Noshirlik faoliyati	54	61	Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat
Kino-videofilmlar,televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish	16	3	Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish



(2025-yil 1-mart holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 638 ta yoki 86,7 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohada korxonalar sonining 97,6 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri keladi;


yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 1,5 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,9 foizini tashkil etdi.

### Shahar va tumanlar kesimida soni (birlikda)



### Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- mart holatiga)

**Shahar va tumanlar kesimida soni**

(birlikda)

Namangan sh.	318
shundan Davlatobod	111
Yangi Namangan	100
Chust	180
Namangan	73
To'raqo'rg'on	58
Uychi	53
Yangiqo'rg'on	48
Uchqo'rg'on	43
Pop	36
Chortoq	36
Norin	28
Mingbuloq	24
Kosonsoy	23


2025- yil 1- mart holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,7 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilot larning soni 75,8 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 23,2 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 1,0 foizni;

**Yillar kesimida soni**

(birlikda)



**Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot**  
(2025- yil 1- mart holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta‘minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

**Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)**


**Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)**



(2025- yil yanvar-fevral oylarida)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


**Yillar kesimida soni**  
(birlikda)



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni**  
(birlikda)



**Shahar va tumanlar kesimida soni**  
(birlikda)




(2025-yil 1-mart holatiga)

Amaldagi 20 448 ta tijorat korxonasi va tashkilotlaridan 2025-yil 1-mart holatiga mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 16 395 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 41,4 foiz, sanoat – 19,4 foiz, qurilish – 6,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 6,1 foiz.


## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Shahar va tumanlar kesimida soni (birlikda)






(2025- yil yanvar-fevral oylarida)

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.


### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




### Shahar va tumanlar kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1- mart holatiga)

2025- yil 1- mart holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi shahar va tumanlarda qayd etilgan Namangan shahrida – 716 ta, Chustda – 606 ta va Mingbuloqda – 248 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 1 171 ta, sanoat – 482 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 369 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 231 ta.


**Yillar kesimida soni**  
(birlikda)



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni**  
(birlikda)



**Shahar va tumanlar kesimida soni**  
(birlikda)




(2025- yil yanvar-fevral oylarida)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Shahar va tumanlar kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1- mart holatiga)


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2025- yil 1- mart holatiga ko'ra 861 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 28,9 foiz, sanoat – 27,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 15,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 6,0 foiz, shahar va tumanlar kesimda esa eng ko'pi Namangan shahri – 22,9 foiz, To'raqo'rg'on – 15,3 foiz va Namangan tumanida – 9,1 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


**Yillar kesimida soni**  
(birlikda)



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni**  
(birlikda)



**Hududlar kesimida soni (birlikda)**




(2025-yil 1-mart holatiga)


O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Tumanlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Chust (17,4 foiz), Chortoq (13,2 foiz) va Yangiqo'rg'on (12,0 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

**Hududlar kesimida soni**  
(birlikda)



**Yillar kesimida soni**  
(birlikda)





### Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (2025- yil yanvar-fevral oylarida)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

2025- yil yanvar-fevral oylarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni o'sish sur'ati 2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda 1,70 martaga oshgan.


#### Yillar kesimida soni (birlikda)



#### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



#### Shahar va tumanlar kesimida soni (birlikda)




(2025-yil 1-mart holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 223 ta korxonalardan 91 tasi qo'shma korxonalar va 132 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.


## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Shahar va tumanlar kesimida soni (birlikda)



Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 100,0 foizni tashkil etdi.

Yetakchi o'rinni 58 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy egallagan. Bu respublikada chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,0 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 24,2 foiz), Turkiya (ulushi 15,2 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 5,8 foiz) va Qozog'iston (ulushi 4,9 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

( 2025- yil 1- mart holatiga, birlikda )



Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Shahar va tumanlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalar jami soniga nisbatan eng katta ulushi Namangan shahriga 43,9 foiz, tumanlar orasida esa Chust va Kosonsoy – 7,6 foizdan, Yangiqo'rg'on – 7,2 foizga to'g'ri keladi.

( 2025- yil 1- mart holatiga, birlikda )



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

( 2025- yil 1- mart holatiga, birlikda )





**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- avgustdagi** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2025- yil 1-mart** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

The screenshot shows the 'Korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot' form on the UZSTAT website. The form includes the following fields and elements:

- Header: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI
- Navigation: O'zbyekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Agentligi
- Form Title: Korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
- Input Fields:
  - STIR kodini kiriting
  - Agar tashkilotning hisob raqami bo'lsa, uning raqamini kiriting (with a dropdown menu showing '1 kv. m.')
  - Raonidagi kodni kiriting
- Submit Button: Olish
- Footer: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2025 yil



## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



Statistik registrlarni yuritish bo'limi  
Tel.: (69) 2117200 (5060)